O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI SURXONDARYO VILOYATI HOKIMLIGI SOG‘LIQNI SAQLASH BOSHQARMASI

93-T-sonli BUYRUG’I

14-avgust 2025-yil **Termiz sh**

Sog‘liqni saqlash vazirining 2025-yil 08-iyuldagi “Sog‘liqni saqlash boshqarmasining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasiga oid ichki me’yoriy hujjatlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 203-son buyrug‘i ijrosini ta’minlash maqsadida

Buyuraman:

1. Sog‘liqni saqlash vazirining 2025-yil 08-iyuldagi “Sog‘liqni saqlash boshqarmasining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasiga oid ichki me‘yoriy hujjatlarini tasdiqlash to‘g‘risida” gi 203-son buyrug‘i asos va amalda ijro uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagilar:

-Sog‘liqni saqlash boshqarmasining korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha siyosati 1-ilovaga muvofiq;

-Sog‘liqni saqlash boshqarmasi faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash uslubiyoti 2-ilovaga muvofiq;

-Sog‘liqni saqlash boshqarmasida manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish to‘g‘risidagi nizom 3-ilovaga muvofiq;

-Sog‘liqni saqlash boshqarmasining aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy hatti harakatlar to'g'risida kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va ko‘rib chiqish reglamenti 4-ilovaga muvofiq;

-Sog‘liqni saqlash boshqarmasi xodimlarining etika va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o‘qitishni tashkil qilish bo‘yicha yo‘riqnoma 5-ilovaga muvofiq;

-Sog‘liqni saqlash boshqarmasida kontragentlarni tekshirishga oid yo‘riqnoma 6-ilovaga muvofiq;

-Sog‘liqni saqlash boshqarmasiga ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo‘yicha yo‘riqnoma 7-ilovaga muvofiq;

IJRO.GOV.UZ тизими орқали ЭРИ билан тасдиқланган, Ҳужжат коди: PZ67087979

-Sog‘liqni saqlash boshqarmasida Korrupsiyaga qarshi tartib-taomillarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish uslubiyati 8-ilovaga muvofiq;

-Sog‘liqni saqlash boshqarmasida korrupsiyaga qarshi kurash tizimining holati to‘g‘risidagi hisobotni shakllantirish va taqdim etish bo‘yicha nizom 9-ilovaga muvofiq;

-Sog‘liqni saqlash boshqarmasining korrupsiyaviy hatti-harakatlari va odob ahloq qoidalarini buzish holatlari ustidan xizmat tekshiruvlari o‘tkazish bo‘yicha reglamenti 10-ilovaga muvofiq;

-Sog‘liqni saqlash boshqarmasida davlat xaridlari ustidan nazoratni tashkil etish bo‘yicha uslubiy qo‘llanma 11-ilovaga muvofiq;

-Sog‘liqni saqlash boshqarmasi xodimlari tomonidan xizmat safarlari, xalqaro va boshqa rasmiy tadbirlar munosabati bilan olinishi mumkin bo'lgan sovg'a qiymati, shuningdek uni tasarruf etish tartibi to‘g‘risidagi nizom 12-ilovaga muvofiq;

-Sog‘liqni saqlash boshqarmasida Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan xodimlarni rag‘batlantirish tartibi to‘g‘risidagi nizom 13-ilovaga muvofiq;

-Sog‘liqni saqlash boshqarmasida monopoliyaga qarshi kompleans tizimini joriy etish va uning ishlash tartibi to‘g‘risida nizom 14-ilovaga muvofiq tasdiqlangani inobatga olinsin.

3. Sog‘liqni saqlash vazirining “O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash boshqarmasi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish hamda uni oldini olish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida” 2022-yil 1-martdagi 71-son buyrug‘i o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblanganligi ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

4. Barcha viloyat davolash-profilaktika muassasalari, viloyat SEOvaJSB, Respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlarining Surxondaryo viloyati filiallari hamda Termiz shahar va barcha tuman tibbiyot birlashmalari rahbarlari Vazir buyrug‘i bilan tasdiqlangan ichki me’yoriy hujjatlar asosida 1 oylik muddatda:

- lchki me’yoriy hujjatlarni ishlab chiqib, tasdiqlasin;

- Har bir xodim kesimida tanishtirish ishlarini tashkil etsin;

- Amalga oshirilgan ishlar yuzasidan asoslantiruvchi hujjatlarni ilova qilgan holda boshqarma Moliya-iqtisod sho’basi bosh mutaxassisi M.Baymuratovga ma‘lumot taqdim etsin.

5 Mazkur buyruqning ijrosining nazoratini o‘z zimmamda qoldiraman.

Viloyati sog‘liqni saqlash boshqarmasi boshlig‘i: **K.M.Abdivoxidov**